

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



AMALIY BEZAK SAN'ATI PRAKTIKUMI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati

Navoiy– 2024

Fan/modul kodi ABSP205	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Amaliy bezak san'ati praktikumi	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi – «Amaliy bezak san'ati praktikumi» o'quv fanining maqsadi oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisligi magistrantlariga insoniyat tomonidan yaratilgan amaliy san'at asarlari (naqqoshlik, garchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, kulolchilik va h.) bilan tanishtiradi va amaliyotda magistrnlarni o'zlari savodli bajaradi. Ularning badiiy didlarini shakllantiradi, amaliy san'at asarlarini tushunishga yordam beradi.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi – amaliy san'atda zamonaviy metodlar va uning metodologiyasini, kasbga yo'naltirilgan shaxsiy sifatlarni o'rgatish, oliy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun amaliy bezak san'ati praktikumi fanidan mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, fanning hozirgi davrda erishgan yutuqlaridan xabardor qilish, fanni o'qitish metodikasi va undagi pedagogika hamda texnologiyaning erishgan hozirgi zamon yutuqlarini tadbiiq qilish usullarini ko'rsatish, tasviriy va amaliy san'at fanlarini o'qitish uslubiyati bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan tanishtirish va didaktika fani nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash, magistrnlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan tanishtirish orqali ularni yangi pedagogik texnologiyalar yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarida ishtirok etishga tayyorlash, o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish, tahsil olishda barcha talablarga ongli va jiddiy yondashuvga o'rgatish.</p> <p>II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Uy-ro'zg'or va maxalliy buyumlarga miniatyura ishlash uslublarini o'rganish. 2. Nosqovoq, chilim, tomosha qovoq, lagan, ko'za, likopcha va boshqa buyumlarga xos miniatyura kompozitsiyasini tuzish va bajarish. 3. Naqsh va uning turlari. Naqsh elementlarini chizish. 4. Badiiy kulolchilikni o'rgatish texnologiyasi. 5. Kulolchilikda uy-ro'zg'or buyumlari; ko'za, guldon, lagan, xumdon, o'yinchoq-haykalchalar yasash. 			

6. Dostgohda loydan buyum yasash. Buyumni tabiiy quritish.
7. Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqsh elementlarini chizish.
8. Ganch o'ymakorligi uchun o'simliksimon naqsh elementlari ramziy naqsh elementlarini chizish bosqichlari.
9. Ganch o'ymakorligi uchun o'simliksimon naqsh elementlari ya'ni, oddiy gullar, murakkab gullar, oddiy barglar, murakkab barglar, bargli gullar, marg'ula shkufta, sirtmoq, bofta, tanob va boshqa elementlarni qalamda chizish.
10. Namoyon kompozitsiyasini tuzish va o'yish.
11. Geometrik naqshli namoyon tuzish va o'yish.
12. Toshoyna zaminli ganch o'ymakorligi bajarish.
13. Toshoynadan ganch o'ymakorligi ishlarini bajarish va uni kelib chiqishi haqida tushunchalar.
14. Toshoynaning o'ziga xos xususiyatlari. Uni ramkaga joylashtirish.
15. Toshoyna ustida naqsh kompozitsiyasini yaratish metodlari toshoyna yuziga xovonda quyish yoki suvash, axta yordamida naqsh kompozitsiyasini tushirish.
16. Naqshni o'yish va pardozlash. Toshoynani tozalash.
17. Sovg'a buyumlarini yog'ochda yasash va badiiy bezash.
18. Buyumlarni badiiy bezash.
19. Uy-ro'zg'or va yog'och buyumlarni yasash, ularga naqsh kompozitsiyasi tuzib ishlash.
20. Biror buyum yasash: material tanlash, arralash, randalash, birlashtirish va jilvirlash.
21. Shpaklevka qilish va jilvirlash, gruntlash, bo'yash va turlash.
22. Naqshni bo'yash va pardozlash.
23. Buyumni laklash texnologiyasi.
24. Kashtachilikda bezak buyumlarining turlari va ko'rinishlari (do'ppi, joynamoz, zardevor, palak, kirpech, so'zana, choyshab).
25. Yog'ochda panjara turlari.
26. Panjara kompozitsiyasini tuzish va uni o'yish.
27. Me'morchilikda va amaliy san'atda panjaraning ishlatilishi.
28. Mis kandakorligida ishlatiladigan naqshlarni chizish.
29. Mis kandakorligida oddiy naqsh namunalarini chizish va o'yish.
30. Ustaxonalarga qo'yilgan gigiyenik talablar, yorug'lik va inson xavfsizligi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

	<p>- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;</p> <p>- masofaviy ta'lim.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Naqsh va uning turlari. Naqsh elementlarini chizish. Usimliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqshlar. 2. Quticha yasash va unga miniatyura ishlash. 3. Toshoyna zaminli ganch o'ymakorligi bajarish. 4. Kulolchilik buyumlariga naqsh kompozitsiyasi tuzishda sodda va murakkab naqsh kompozitsiyalar chizish. 5. Amaliy san'atning yo'nalishlarida kompozitsiya turlari. 6. Sovg'a buyumlarini badiiy bezash.
4.	<p>VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Magistr bilishi kerak:</p> <p>– «Amaliy bezak san'ati praktikumi» fanini jamiyat rivojlanishidagi tutgan o'rni, xalq amaliy san'atining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi grafika, rangtasvir, kompozitsiya, amaliy badiiy bezak san'ati, haykaltaroshlik, me'morchilik, shuningdek, tarix, arxeologiya, etnografiya, tabiatshunoslik, o'lkashunoslik, madaniyat va san'at tarixi kabi fanlarga aloqasini, xalq amaliy san'atini o'qitish texnologiyalari, ularning nazariy asoslari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limda xalq amaliy san'atini mazmunini, xalq amaliy san'ati bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish ishlarini <i>bilishi kerak</i>;</p> <p>– magistr kasb hunar kollejlari o'quvchilari va oliy ta'lim talabalarini xalq amaliy san'atiga bo'lgan mehrini uyg'ota olish, xalq amaliy san'ati fanlarini o'qitilishda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llay olish, xalq amaliy san'ati asarlarini tushunishi va ularni tahlil qila olish, yoshlarni san'at bo'yicha bilim olishiga yo'llash, xalq amaliy san'ati fani bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish, xalq amaliy san'ati darslarini rejalashtirish va o'tkazish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim</i>.</p> <p>– magistr xalq amaliy san'ati tur va yo'nalishlari ish usullari, xalq amaliy san'atidan zamonaviy yo'nalish va usullar, xalq amaliy san'ati asarlarini tahlil qila olish va baholash, talabalarda xalq amaliy san'atiga bo'lgan mehrni uyg'ota olish, xalq amaliy san'ati fanlarini o'qitilishida zamonaviy va axborot texnologiyalarni qo'llay olish, xalq amaliy san'ati bo'yicha mustaqil ta'lim olishga o'quvchilarni yo'llash; xalq amaliy san'ati bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish, xalq amaliy san'ati darslarini rejalashtirish va yuqori saviyada o'tkazish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

7.

IX. Asosiy adabiyotlar:

1. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: 1991.
2. Bulatov S.S. Naqqoshlik. –T.: Fan va texnologiya, 2010
3. Bulatov S.S. Ganchkorlik va naqqoshlik yog'och o'ymakorligi atamalariga izohli lug'at. T.: Mehnat, 1991.
4. G'ulomov K.M. Amaliy san'at. –T.: Iqtisod-moliya, 2007
5. R.Hasanov. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. –T.: 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent 2009
7. G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi. O'zROO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
8. Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya" – Toshkent, 2008.
9. Abdurahmonov G'. Kompozitsiya asoslari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2010.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.Uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.tdpu.Uz
4. www.Ziyonet.Uz
5. www.edu.Uz
6. [tdpu - INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
7. www.nbgf.Intal.Uz

8.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil " 6 " 09 _____ dagi qarori bilan tasdiqlangan
9.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası v.b.dots. p.f.f.d. (PhD) <u>S.A.Shovdirov</u>
10.	Taqrizchilar: O.D.Raximov – NDPI, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası dotsenti S.S.Abdullayev – BuxDU "Tasviriy san'at va amaliy san'at kafedrası" dotsenti

Kafedra mudiri  t.f.n. A.H.Abdullayev

№ Ts/M-80d